



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**DAVLAT QARZ SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISH STRATEGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ
ПОЛИТИКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДОЛГА**

**IMPROVING THE STRATEGY FOR EFFECTIVE MANAGEMENT OF PUBLIC DEBT
POLICY**

Tilabov Nasrulla Tashmurotovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası dotsenti, i.f.n.

ORCID 0000-0002-4412-4019

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirishning nazariy-amaliy yo‘nalishlari rasmiy qonunlar, farmonlar, qarorlar, Byudjetnoma 2026–2028, Fiskal strategiya 2026–2028, 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasi, Markaziy bank statistik byulleteni hamda 2025-yil yakuni bo‘yicha qarz portfeli ma‘lumotlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida amaldagi tizimning kuchli jihatlari sifatida fiskal limitlar, qarzning qonuniy chegaralari va o‘rta muddatli rejalashtirish mexanizmlari ajratib ko‘rsatildi. Shu bilan birga, tashqi qarzning yuqori ulushi, xorijiy valyutadagi majburiyatlar konsentratsiyasi, DXSH hamda davlat korxonalari bilan bog‘liq kengaytirilgan fiskal tavakkalchiliklar, loyiha samaradorligini yakuniy baholashning sustligi va qarz bo‘yicha real vaqt monitoringining yetarli emasligi strategiyani yangilash zaruratini kuchaytirishi asoslandi. Muallif tomonidan annual borrowing plan, triggerli risk-limitlar, benchmark obligatsiyalar, raqamli debt dashboard va ex-post baholash mexanizmlarini birlashtirgan integrallashgan strategik model taklif etildi.

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, qarz portfeli, fiskal qoidalar, annual borrowing plan, valyuta xatari, ichki qarz bozori, risk-limitlar, benchmark obligatsiyalar, debt dashboard, ex-post baholash.

В статье на основе официальных нормативно-правовых документов и статистических материалов рассматриваются направления совершенствования стратегии эффективного управления государственной долговой политикой Узбекистана. Проанализированы Бюджетное послание на 2026–2028 годы, Фискальная стратегия, среднесрочная стратегия управления государственным долгом, решения Президента и Кабинета Министров, а также данные Центрального банка и итоговые показатели долгового портфеля за 2025 год. Выявлено, что действующая система обладает прочной правовой базой и опирается на фискальные лимиты, однако сохраняются риски высокой доли внешнего долга, валютной концентрации, условных обязательств по ГЧП и недостаточной оценки эффективности заимствований. Предложена интегрированная модель, включающая annual borrowing plan, риск-лимиты, развитие рынка государственных ценных бумаг, цифровой debt dashboard и ex-post оценку проектов.

Ключевые слова: государственный долг, долговой портфель, фискальные правила, annual borrowing plan, валютный риск, внутренний долговой рынок, риск-лимиты, benchmark-облигации, debt dashboard, ex-post оценка.

This article analyses the main directions for improving the strategy of effective public debt management in Uzbekistan on the basis of official legal acts and fiscal documents. The study uses the 2026–2028 Budget Message, the 2026–2028 Fiscal Strategy, the medium-term public debt

management strategy, presidential and governmental decisions, Central Bank statistics and year-end 2025 debt portfolio data. The paper shows that Uzbekistan has already formed a legal framework based on fiscal limits and medium-term planning, yet the high share of external debt, foreign-currency concentration, broader contingent liabilities and weak ex-post efficiency assessment still constrain policy quality. An integrated strategic model is proposed, combining an annual borrowing plan, trigger-based risk limits, benchmark local-currency securities, a digital debt dashboard and stronger ex-post project evaluation.

Keywords: public debt, debt portfolio, fiscal rules, annual borrowing plan, currency risk, domestic debt market, risk limits, benchmark bonds, debt dashboard, ex-post evaluation.

Keyingi yillarda jahon moliya bozorlarida foiz stavkalarining yuqori darajada shakllanishi, geosiyosiy noaniqliklar va refinanslash bosimining ortishi davlat qarzi siyosatini oddiy moliyalashtirish vositasi sifatida emas, balki risk, xarajat va natijadorlikni bir vaqtning o‘zida boshqaruvchi strategik instrument sifatida ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Shu jihatdan O‘zbekiston uchun ham davlat qarzi masalasi faqat qarz hajmini nazorat qilish bilan cheklanmaydi, balki qarz portfelining sifati, valyuta tarkibi, muddat tuzilmasi, davlat kafolatlari va kengaytirilgan fiskal majburiyatlarning boshqarilishi bir xil darajada muhim hisoblanadi.

Rasmiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda davlat qarzi bo‘yicha institutsional asos sezilarli darajada kuchaygan. “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonun bilan davlat qarzining yuqori chegarasi YIMga nisbatan 60 foiz etib belgilangan, 50 foizlik daraja esa erta ogohlantirish mezonini sifatida talqin qilinadi [1]. 2026-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonun yangi jalb qilinadigan tashqi qarz, ichki qarz emissiyasi hamda DXSH majburiyatlari bo‘yicha yillik limitlarni aniqlashtirdi [2].

Byudjetnoma va Fiskal strategiyada 2025-yilning birinchi yarmi hamda yil yakuniga doir qarz dinamikasi ko‘rsatkichlari berilib, 2025–2028-yillarda davlat qarzining YIMga nisbatan qariyb 35 foiz atrofida saqlanishi prognoz qilinmoqda [5], [6]. Shu bilan birga, 2025-yil 1-iyul holatiga jami davlat qarzi 43,4 mlrd AQSH dollarini, yil yakunida esa 46,85 mlrd AQSH dollarini tashkil etgani hamda portfelning asosiy qismi tashqi va xorijiy valyutadagi majburiyatlarga to‘g‘ri kelgani strategiyani yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi [5], [9].

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, amaldagi mexanizmlarning yetarli va zaif tomonlarini baholash hamda rasmiy hujjatlar va statistik ma‘lumotlarga tayangan holda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari sifatida: birinchidan, davlat qarzi dinamikasi va portfeli tarkibini tahlil qilish; ikkinchidan, normativ-huquqiy asoslarni qiyosiy baholash; uchinchidan, o‘rta muddatli strategiyani takomillashtirishga qaratilgan integrallashgan modelni ishlab chiqish belgilandi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi asosan rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar, strategik fiskal materiallar, davlat qarzi bo‘yicha statistik hisobotlar va qarz portfeli bo‘yicha elektron ma‘lumotlar bazasi asosida tuzildi. Quyidagi 1-jadvalda tadqiqotda tayanch sifatida foydalanilgan manbalarning mazmuni va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati tizimlashtirildi.

1-jadval

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy manbalar va ularning tahliliy ahamiyati

Muallif va manba	Tahliliy sharh
1.O‘zbekiston Respublikasi “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonuni, 29.04.2023 [1]	Davlat qarzining 60 foizlik yuqori chegarasi va 50 foizlik erta ogohlantirish mezonini belgilaydi hamda maqoladagi fiskal qoidalar tahlilining normativ asosini beradi
2.O‘zbekiston Respublikasi “2026-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2025 [2]	Yangi jalb qilinadigan tashqi qarz, ichki qarz emissiyasi va DXSH majburiyatlari bo‘yicha yillik limitlarni ko‘rsatadi hamda qarz oqimini operatsion boshqarish uchun muhim

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-21-son Farmoni, 16.02.2026 [3]	Natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish, KPI va samaradorlik monitoringini kuchaytiradi hamda qarz mablag‘laridan foydalanishni ex-post baholash bilan bog‘lash imkonini beradi
4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 210-son qarori, 08.04.2025 [4]	Davlat moliyasini boshqarish tizimini raqamlashtirish, ichki nazorat va axborot integratsiyasini rivojlantirishni ko‘zda tutadi hamda deb dashboard konsepsiyasi uchun institutsional zamin yaratadi
5.Byudjetnoma 2026–2028 [5]	2025-yil 1-iyul holatiga qarz dinamikasi, valyuta tarkibi va fiskal tavakkalchiliklar sharhini beradi hamda maqolaning asosiy statistik bazalaridan biri
6.Fiskal strategiya 2026–2028 [6]	Davlat qarzini YIMga nisbatan qariyb 35 foiz atrofida saqlash, portfelni diversifikatsiya qilish va ichki bozorni rivojlantirish bo‘yicha o‘rta muddatli maqsadlarni belgilaydi
7.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat qarzini boshqarish strategiyasi, 2026–2028 [7]	Qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini maqbul risk darajasida kamaytirish, muddatni uzaytirish, bozorni rivojlantirish va ochiqlikni ta‘minlash vazifalarini belgilaydi
8.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni – 2025 [8]	Ichki moliya bozori, foiz muhiti, g‘aznachilik qog‘ozlari va likvidlik sharoitini tahlil qilishda qo‘llanildi hamda ichki qarz bozorini chuqurlashtirish uchun makromoliyaviy fonni ko‘rsatadi
9.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Umumiy davlat qarzi hisobotlari 2025 [9]	2025-yil yakuniga doir qarz portfelining manbalar, foiz stavkasi, valyuta va muddat bo‘yicha tarkibiy ko‘rsatkichlarini beradi hamda maqolaning empirik yangiligini kuchaytiradi

Mazkur 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mavjud adabiyotlar va rasmiy hujjatlar davlat qarz siyosatini boshqarishning alohida elementlarini batafsil yoritadi, biroq ularni birlashtiruvchi amaliy integrallashgan modelga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Xususan, normativ hujjatlar limitlarni belgilasa, strategik hujjatlar maqsad va yo‘nalishlarni ko‘rsatadi, statistik materiallar esa portfel sifati va risklar bo‘yicha real vaziyatni ochib beradi. Tadqiqotning ilmiy vazifasi aynan shu uch qatlamni yagona tahliliy konturga keltirishdan iborat.

Maqolada normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-statistik usul, trend tahlili, strukturaviy tahlil va sintez metodlari qo‘llanildi. Normativ-huquqiy tahlil davlat qarz siyosatini tartibga soluvchi qonunlar, farmon va qarorlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga xizmat qildi. Trend tahlili 2020–2025-yillardagi qarz dinamikasini, strukturaviy tahlil esa qarz portfelining tashqi-ichki, milliy-xorijiy valyuta, qat’iy-o‘zgaruvchan foiz hamda muddat bo‘yicha tarkibini baholash uchun ishlatildi.

Empirik baza sifatida Byudjetnoma 2026–2028, Fiskal strategiya 2026–2028, Markaziy bank statistik byulleteni, davlat qarzini boshqarish strategiyasi hamda “Umumiy davlat qarzi 2025” elektron jadvalidagi ma’lumotlardan foydalanildi. Jadval va rasmlar muallif tomonidan mazkur rasmiy manbalar asosida qayta ishlanib tuzildi. Shu bois maqoladagi sonli natijalar bevosita rasmiy statistik manbalarga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Metodologik yondashuvning muhim jihati shundaki, tadqiqot qarz siyosatini faqat qarz/YIM ko‘rsatkichi doirasida emas, balki cost-risk-efficiency yondashuvi asosida tahlil qiladi. Ya’ni qarz hajmi bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish xarajatlari, valyuta riski, refinanslash profili, ichki bozor


sig‘imi, contingent liabilities va qarz mablag‘lari natijadorligi ham baholash mezonlari qatoriga kiritildi.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda davlat qarz siyosatini takomillashtirish annual borrowing plan, triggerli risk-limitlar, ichki bozorni chuqurlashtirish, raqamli debt dashboard va ex-post baholashni yagona strategik konturga birlashtiruvchi model sifatida talqin qilindi.

Natija va muhokama

1. *Davlat qarzi dinamikasi va portfel sifati.* Rasmiy ma’lumotlar davlat qarzining nominal hajmi o’sib borayotganini, biroq YIMga nisbatan ulushi o’rta muddatli davrda barqaror intervalda saqlanayotganini ko’rsatadi. Biroq nominal o’sishning o’zi davlat qarzi siyosati uchun asosiy xatar emas; strategik jihatdan muhim masala qarz portfelining tarkibiy sifati, ya’ni tashqi qarzning ustunligi va xorijiy valyutadagi majburiyatlar konsentratsiyasidir.

2025-yil 1-iyul holatiga davlat tashqi qarzi 36,4 mlrd AQSH dollarini, davlat ichki qarzi esa 7,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan [5]. 2025-yil yakuniga kelib elektron bazadagi ma’lumotlarga ko’ra jami qarz 46,85 mlrd AQSH dollariga, shundan tashqi qarz 39,82 mlrd dollarga va ichki qarz 7,03 mlrd dollarga yetgan [9]. Shu bilan birga, qarz/YIM ko’rsatkichi 31,9 foiz atrofida shakllangan bo’lib, miqdoriy jihatdan xavfsiz diapazonda qolmoqda [9].



1-rasm. O‘zbekiston davlat qarzi dinamikasi va tarkibi*

**Byudjetnoma 2026–2028, Fiskal strategiya 2026–2028 va “Umumiy davlat qarzi 2025” elektron jadvali asosida muallif ishlanmasi.*

Ushbu 1-rasm tahlili shuni ko’rsatadiki, 2020-yildan 2025-yil yakuniga qadar davlat qarzi 23,4 mlrd AQSH dollaridan 46,85 mlrd AQSH dollarigacha deyarli ikki baravar oshgan. Biroq shu davrda qarz/YIM nisbati 35,2 foizdan 31,9 foizgacha pasaygan yoki nisbatan mo’tadil holatda saqlangan. Bu holat davlat qarzi siyosatini baholashda nominal ko’rsatkich bilan cheklanib bo’lmazligini, strategik e’tibor qarz portfelining sifati va iqtisodiy o’sish bilan uyg’unligiga qaratilishi zarurligini tasdiqlaydi.

2025-yil 1-yanvar valyuta tarkibi Fiskal strategiyada keltirilgan portfel ulushlari asosida hisoblandi. Jadval davlat qarzi bo’yicha nominal xavfsizlik saqlanayotgan bo’lsa-da, valyuta va manbalar tarkibi bo’yicha strategik zaiflik saqlanib qolayotganini ko’rsatadi.

Davlat qarzi bo‘yicha asosiy indikatorlar va strategik baho*

Ko‘rsatkichlar	2025-y. 1-yan.	2025-y. 1-iyul	2025-y. yakuni	Tahliliy baho
Jami davlat qarzi, mlrd AQSH doll.	40,2	43,4	46,85	Nominal o‘shish tez, ammo bu o‘shish o‘zi xavf emas; asosiy masala portfel tarkibidir.
Qarz/YIM, %	35,0	34,2	31,9	Qarz yukining nisbiy darajasi mo‘tadil, 60% qonuniy limitdan ancha past.
Tashqi qarz ulushi, %	83,8	83,9	84,9	Portfelning asosiy zaif nuqtasi tashqi manbalar ulushining juda yuqori saqlanayotganidadir.
Ichki qarz ulushi, %	16,2	16,1	15,1	Ichki bozor kengayayotgan bo‘lsa-da, strategik rolini kuchaytirish zarur.
Xorijiy valyutadagi qarz ulushi, %	90,9*	88,0	87,8	Valyuta riski kamaygani bilan hanuz portfelning markaziy xavf omili bo‘lib qolmoqda.
Milliy valyutadagi qarz ulushi, %	9,1*	12,0	12,2	So‘mdagi instrumentlar ulushi oshmoqda, lekin benchmark segmentlar yetarli emas.
>1 yil muddatli qarz ulushi, %	—	—	93,5	Qisqa muddatli bosim cheklangan, biroq uzoq muddatli servis yuklamasi monitoring talab qiladi.

**Muallif ishlanmasi*

2. *Amaldagi strategik asoslarning yetarli va zaif jihatlari.* Amaldagi boshqaruv tizimining muhim yutug‘i shundaki, qarz siyosati endilikda fiskal qoida va o‘rta muddatli rejalashtirish bilan bevosita bog‘langan. Qonunchilikda davlat qarzi bo‘yicha 60 foizlik mutlaq limit, 50 foizlik erta ogohlantirish mexanizmi va konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi bo‘yicha 3 foizlik mezon mavjud [1], [5], [6]. Bu davlat qarzining nazoratsiz o‘shishini cheklashga xizmat qiluvchi institutsional tayanch sifatida baholanishi mumkin.

Fiskal strategiyada davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo‘yicha o‘rta hamda uzoq muddatli davlat qimmatli qog‘ozlarini ko‘paytirish, portfelni diversifikatsiya qilish, xalqaro investorlarni ichki obligatsiyalar bozoriga jalb etish va qarz ma’lumotlari ochiqqligini ta’minlash choralari belgilangan [6]. Byudjetnoma esa DXSH loyihalari va davlat korxonalari bilan bog‘liq fiskal tavakkalchiliklarni alohida bo‘limda ko‘rsatib, kengaytirilgan risk yondashuvi zarurligini kuchaytiradi [5].

Shunga qaramay, bir qator tizimli cheklovlar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, yillik emissiya va qarz olish rejasi bozor ishtirokchilari uchun annual borrowing plan formatida to‘liq paket ko‘rinishida muntazam e’lon qilinmaydi. Ikkinchidan, risk-limitlar tizimi ko‘proq umumiy maqsadlar

darajasida bo‘lib, valyuta tarkibi, qayta moliyalash devori, o‘zgaruvchan foizli majburiyatlar va contingent liabilities bo‘yicha triggerlar ko‘rinishida ishlamayapti. Uchinchidan, qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan dastur va loyihalarning ex-post samaradorlik bahosi tizimli va ochiq formatda yetarli darajada yuritilmaydi.

To‘rtinchidan, ichki qarz bozorida g‘aznachilik obligatsiyalari hajmi oshgan bo‘lsa-da, investor bazasini kengaytirish, likvid ikkilamchi bozorni shakllantirish, benchmark rentabellik egri chizig‘ini mustahkamlash va institutlar-aro kommunikatsiyani kuchaytirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli davlat qarzi siyosatini yangi bosqichga olib chiqish uchun amaldagi normativ asosni raqamlashtirilgan, riskka sezgir va natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv modeli bilan to‘ldirish zarur.

3. *Takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.* Mazkur 2-rasmda taklif etilgan model davlat qarz siyosatini oltita o‘zaro bog‘langan ustun asosida takomillashtirishni nazarda tutadi. Birinchi ustun fiskal qoidalarni amaliy triggerlar bilan ishlaydigan mexanizmga aylantirishdir. Ikkinchi ustun annual borrowing plani joriy etib, budget taqchilligi, naqd pul oqimi, emissiya kalendari va qarz servis to‘lovlarini yagona hujjatga birlashtirishdan iborat. Uchinchisi ustun portfel risklari bo‘yicha miqdoriy limitlar, to‘rtinchi ustun esa ichki obligatsiyalar bozorini chuqurlashtirishdir.

Beshinchi va oltinchi ustunlar raqamli deb dashboard hamda ex-post baholashni o‘z ichiga oladi. Bu ikki komponent qarz siyosatini hisob-kitob darajasidan boshqaruv sifatiga olib o‘tadi. Raqamli panel real vaqt rejimida qarz portfeli, valyuta tarkibi, auksion natijalari, DXSH va kafolatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarni kuzatish imkonini beradi. Ex-post baholash esa jalb qilingan mablag‘larning iqtisodiy va ijtimoiy qaytimini aniqlab, kelgusi qarz qarorlarining sifatini oshiradi.



2-rasm. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarishning takomillashtirish modeli *

**Byudjetnoma 2026–2028, Fiskal strategiya 2026–2028 va “Umumiy davlat qarzi 2025” asosida muallif ishlanmasi.*

Ushu 3-jadvaldagi takliflar bir-biridan ajralgan alohida chora emas, balki yagona boshqaruv konturining o‘zaro bog‘langan elementlari hisoblanadi. Masalan, annual borrowing plansiz benchmark bozorni shakllantirish qiyin; risk-limitlarsiz esa ichki bozorning kengayishi kutilgan darajada xavfsizlik bermaydi. Shu bois davlat qarz siyosatining yangi bosqichi muvozanatli cost-risk-efficiency tamoyiliga tayangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Davlat qarz siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor strategik choralar *

Takomillashtirish yo‘nalishi	Amaldagi muammo	Taklif etilayotgan mexanizm	Kutiladigan natija
Annual borrowing plan	Qarz olish rejalari bozor uchun yetarli darajada oldindan paketlashtirilmagan.	Yillik qarz olish rejasi, choraklik yangilanish va auksion kalendari e‘lon qilinadi.	Bozor kutilmaslari boshqariladi, emissiya narxi va noaniqlik kamayadi.
Triggerli risk-limitlar	Valyuta, foiz va refinanslash risklari umumiy tavsiyalar darajasida qolmoqda.	FX ulushi, o‘zgaruvchan foiz ulushi, 1 yil ichida to‘lanadigan qarz ulushi bo‘yicha cheklovlar joriy etiladi.	Risklarni oldindan aniqlash va tezkor javob berish kuchayadi.
Ichki obligatsiyalar bozori	Likvid benchmark segmentlar va investorlar bazasi yetarli emas.	3, 5 va 10 yillik benchmark obligatsiyalar, market-maker elementlari va investorlar bilan kommunikatsiya kengaytiriladi.	So‘mdagi qarz ulushi oshadi, valyuta riski bosqichma-bosqich pasayadi.
Raqamli deb dashboard	Qarz, DXSH va kafolatlar bo‘yicha axborotlar tarqoq bazalarda saqlanadi.	IMV, MB va boshqa tizimlar integratsiyasi asosida yagona analitik panel yaratiladi.	Shaffoflik, hisobdorlik va boshqaruv tezligi ortadi.
Ex-post baholash	Qarz mablag‘lari qaytimi va loyiha samaradorligi bo‘yicha teskari aloqa sust.	Har bir yirik qarz loyihasi bo‘yicha KPI va yakuniy baholash joriy etiladi.	Qarz mablag‘larining iqtisodiy qaytimi va tanlov sifati yaxshilanadi.
Kengaytirilgan fiskal risk nazorati	DXSH va DUK majburiyatlari ko‘pincha alohida ko‘riladi.	Contingent liabilities registri va risk scoring amaliyoti joriy etiladi.	Yashirin fiskal bosimlar erta aniqlanadi va byudjetga zarba kamayadi.

**Muallif ishlanmasi*

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirishning markaziy vazifasi qarzning mutlaq hajmini qisqartirish emas, balki uning tarkibi, risk profili va boshqaruv sifatini yaxshilash ekanini ko‘rsatdi. Rasmiy statistik ma‘lumotlar qarzning YIM ko‘rsatkichining qonuniy limitdan ancha past ekani va o‘rta muddatda mo‘tadil darajada saqlanayotganini tasdiqlaydi. Biroq portfelning 2025-yil yakunida qariyb 85 foizi tashqi manbalarga, qariyb 88 foizi esa xorijiy valyutalarga to‘g‘ri kelayotgani strategik ehtiyotkorlikni kuchaytirishni talab qiladi.

Maqolada amaldagi tizimning ijobiy tomonlari sifatida fiskal limitlar, erta ogohlantirish mezonlari, o‘rta muddatli fiskal rejalashtirish va qarz siyosatining normativ-huquqiy asoslari ajratib ko‘rsatildi. Shu bilan birga, annual borrowing plan formatining to‘liq shakllanmaganligi, triggerli

risk-limitlar tizimining amaliy emasligi, ex-post baholash zaifligi va raqamli monitoringning tarqoqligi strategiyani takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Shundan kelib chiqib, davlat qarz siyosatini takomillashtirishning eng maqbul modeli annual borrowing plan, benchmark obligatsiyalar, triggerli risk-limitlar, kengaytirilgan fiskal risk registri, raqamli deb dashboard va qarz mablag‘lari samaradorligini yakuniy baholashni birlashtirgan integrallashgan yondashuv sifatida asoslandi. Bunday model qarz narxini pasaytirish, bozor ishonchini oshirish, valyuta riskini yumshatish va byudjet jarayonining hisobdorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosada aytish mumkinki, amaliy jihatdan ushbu takliflar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, tegishli vazirlik va idoralar hamda Parlament tomonidan davlat qarzi siyosatini keyingi bosqichda takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ilmiy nuqtai nazardan esa maqola davlat qarz siyosatini miqdoriy yondashuvdan sifat, risk va natijadorlik mezonlariga asoslangan zamonaviy boshqaruv modeliga o‘tkazish zarurligini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-836-son, 29.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6446817>
2. O‘zbekiston Respublikasi. “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-1105-son, 25.12.2025. <https://lex.uz/docs/-7949060>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-21-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-8050769>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.04.2025 yildagi «2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 210-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7469803>
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Byudjetnoma 2026–2028. https://api.mf.uz/media/filestore/2026-2028-yillar_uchun_Byudjetnoma.pdf
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Fiskal strategiya 2026–2028. <https://www.imv.uz/oz/static/fiskal-strategiya>
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat qarzini boshqarishning 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi. <https://www.imv.uz/static/orta-muddatli-davr-uchun-davlat-qarzini-boshqarish-strategiyasi>
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten – 2025-yil. https://cbu.uz/upload/medialibrary/b2f/MB-Statistik-byulleteni-_2025-yil.pdf
9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “Umumiy davlat qarzi 2025” elektron jadvali (xlsx). Muallif hisob-kitoblari uchun foydalanildi.